O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
TOSHKENT VILOYATI TOSHKENT TUMANI HOKIMI
QARORI

2023 - yil 11 - sentabr 226-10-212-Q/23 Toshkent tuman hokimligi

Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 31 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi 278-sonli qarori ijrosini ta’minlash to‘g‘risida”gi 432-10-0-Q/23-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 15-avgustdagi “Ko‘p kvartirali uylarni boshqarishni yanada samarali tashkil qilish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 278-sonli qarori ijrosi yzasidan Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 31 avgustdagi 432-10-0-Q/23-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunning 6 va 25-moddalariga asosan, qaror qilaman:

1. Toshkent viloyati hokimining 2023 yil 31 avgustdagi 432-10-0-Q/23-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (N.Bazarbaev), Davlat Kadastrlar Palatasining Toshkent Viloyati boshqarmasining tuman bo‘limi (J.Abzalov) ilovaga muvofiq chegaralari belgilangan ko‘p kvartirali uylarga tutash yer maydonlarini 2023- yil 10-sentabrga qadar ko‘p kvartirali uylardagi joylar mulkdorlariga doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib berish bo‘ycha barcha zaruriy hujjatlarni tuman hokimligiga umumlashtirilgan holda taqdim etsin.

3. Tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov hamda Davlat Kadastrlar Palatasining Toshkent Viloyati boshqarmasining tuman bo‘limi (J.Abzalov) bilan birgalikda 2-bandda belgilangan topshiriqlarga muvofiq taqdim etilgan hujjatlar asosida chegaralari belgilangan ko‘p kvartirali uylarga tutash yer maydonlarini 2023-yil 15-sentabrga qadar doimiy foydalanish huquqi asosida ajratib bersin.

4. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi boshqarmasi (N.Bazarbaev),

Davlat Kadastrlar Palatasining Toshkent Viloyati boshqarmasining tuman bo‘limi (J.Abzalov), Iqtisod va moliya bo‘limi (B.Abduraxmonov) bilan birgalikda 2023-yil 1-oktabrga qadar qolgan ko‘p kvartirali uylarning tutash yer maydonlari chegaralarini belgilab, “YERELEKTRON” avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilishini tashkil etsin.

5. Qaror bilan, shunday tartib o‘rnatilganligi, unga ko‘ra:

a) Kadastr agentligi tomonidan ko‘p kvartirali uylarga tutash yer maydonlarining mavjud topografik tasvirlari Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi
vazirligiga bepul taqdim etilishi;

b) 2024-yil 1-yanvardan boshlab:

ko‘p kvartirali uylardagi ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bitimlarni tasdiqlash notariuslar tomonidan Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining axborot tizimi orqali tegishli mulkdorning majburiy badallar yoki to‘lovlar bo‘yicha qarzdorligi mavjud emasligi tekshirilgandan keyin amalga oshirilishi;

umumiy mol-mulkni saqlash, undan foydalanish va uni ta’mirlash hamda ko‘p kvartirali uyga tutash yer maydonini obodonlashtirish uchun majburiy badallarning yoki to‘lovlarning eng kam miqdori Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan belgilanishi;

ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlariga agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilarni (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) va ko‘p kvartirali uylarga tutash hududlarni tozalashdan hosil bo‘lgan chiqindilarni maishiy chiqindilarni to‘plash punktlarida yoki chiqindilarni olib chiqib ketish operatorlari bilan kelishilgan maxsus joylarda yig‘ishga ruxsat etilishi;

Bunda:

mazkur chiqindilarni olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar uchun to‘lov qattiq
maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar uchun belgilangan majburiy to‘lovlarga qo‘shilgan holda yagona to‘lov sifatida undiriladishi;

agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilarni (daraxt va buta shoxshabbalari, barglari) va ko‘p kvartirali uylarga tutash hududlarni tozalashdan hosil bo‘lgan chiqindilarni yig‘ish va maishiy chiqindilarni to‘plash punktlariga

yoki kelishilgan maxsus joylarga yetkazish to‘liq ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari tomonidan amalga oshirilishi;

maishiy chiqindilarni to‘plash punktlarida yoki kelishilgan maxsus joylarda to‘plangan agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilar (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) va ko‘p kvartirali uylarga tutash hududlarni tozalashdan hosil bo‘lgan chiqindilarni olib chiqib ketish operatorlar tomonidan ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari bilan kelishilgan holda reja-grafik asosida amalga oshirilishi;

v) quruvchi tashkilot qurilishi tugallangan ko‘p kvartirali uyni boshqarish uchun boshqaruvchi tashkilotni jalb qiladi. Boshqaruvchi tashkilot aniqlanmagan ko‘p kvartirali uylar foydalanishga qabul qilinmasligi;

g) ko‘p kvartirali uylardagi umumiy mol-mulkning talab darajasida saqlanishini ta’minlash uchun zarur bo‘lgan xizmatlar va ishlarning minimal ro‘yxati Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi tomonidan tasdiqlanishi belgilanganligi inobatga olinsin.

6. Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (N.Bazarbaev), Davlat Kadastrlar Palatasining Toshkent Viloyati boshqarmasining tuman bo‘limi (J.Abzalov) 2023-yil 1-oktabrga qadar ko‘p kvartirali uylarning boshqarish organlari foydalanishida bo‘lgan davlatga tegishli bino va inshootlarni, shuningdek, davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmagan bino va inshootlarni xatlovdan o‘tkazsin hamda ularni Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi huzuridagi “Kommunal ta’minot markazi” davlat muassasasiga operativ boshqaruv huquqi asosida o‘tkazish bo‘yicha choralar ko‘rsin.

7. Qaror bilan, ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari tomonidan faoliyatni amalga oshirish jarayonida tegishli mulkdorlarning huquqlari buzilishini oldini olish maqsadida Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi sohasida nazorat qilish inspeksiyasiga quyidagi qo‘shimcha vakolatlar berilganligi:

ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlari va joylar mulkdorlari tomonidan issiqlik ta’minotidan foydalanishda normativ-huquqiy hujjatlar talablariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish;

ko‘p kvartirali uylardagi umumiy mol-mulk va ularga tutash yer maydonlarida amalga oshirilgan ta’mirlash-tiklash ishlarining qonunchilik hujjatlari va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarga

muvofiq bajarilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish vazifasi belgilanganligi inobatga olinsin.

8. Tuman hokimining o‘rinbosari (S.Mirsagatov), Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi (B.Eshnazarov), Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi (N.Bazarbaev) 2023-yil 1-noyabrga qadar ko‘p kvartirali uylarni boshqarish organlariga agrotexnik ishlov berishdan hosil bo‘ladigan chiqindilarni (daraxt va buta shox-shabbalari, barglari) hamda smyot maishiy chiqindilarni to‘plash punktlariga yig‘ishga ruxsat etilishi munosabati bilan qattiq maishiy chiqindilarni to‘plash va olib chiqib ketish bo‘yicha xizmatlar uchun majburiy to‘lovlar tarifini qayta ko‘rib chiqish va o‘z takliflarini viloyat hokimligiga kiritsin.

9. Barcha tuman bo‘im, tashkilot va idoralar, Qaror bilan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-iyundagi “Ko‘p kvartirali uy-joylarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 5152-sonli qaroriga 4-ilovaga muvofiq o‘zgartirish kiritilganigini inobatga olgan holda bu borada qabul qilingan barcha normativ xujjatlarga o‘zgartirishlar kiritilishi ta’minlansin.

10. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas’ul va shaxsiy javobgar etib tuman qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bo‘limi boshlig‘i (N.Bazarbaev) belgilansin.

11. Qaror ijrosini taminlashda mas’ul tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari S.Mirsagatov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi **O.Rustamov**

Toshkent tuman hokimining
2023-yil 11-sentabrdagi
226-10-212-Q/23-son qaroriga
1-ilova

Ko‘p kvartirali uylarga tutash yer maydonlarining chegaralari belgilanishi HOLATI

Hudud nomi	Ko‘p kvartirali uylar soni	shundan, tutash yer maydonlari
Toshkent tuman	48	